

INVESTITSIYA FAOLIYATI VA EKSPORT SALOHIYATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI

Mamaroziqova Mohlaroyim Nodirjon qizi

Qo'qon Davlat Universiteti Gumanitar fanlar va tillar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyati va eksport salohiyatining iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilinadi. So'nggi yillarda mamlakatlarda xorijiy va ichki investitsiyalar hajmining ortishi, eksport tarkibining o'sib borishi, hamda qo'shimcha qiymat tartibini kengaytirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlayotganligi yoritilgan. Shuningdek, investitsiya siyosatini takomillashtirish hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Investitsiya, eksport salohiyati, iqtisodiy o'sish, innovatsiya, raqobatbardoshlik.*

Kirish: Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir davlatning iqtisodiy o'sish jarayonlarini ta'minlashda investitsiya faoliyati va eksport salohiyati muhim ro'l o'ynaydi. Investitsiyalar ishlab chiqarish mahsulotlarini yangilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga eksport salohiyatining oshishi, tashqi bozorlarda O'zbekiston mahsulotlariga bo'lgan talabni kengaytirib, iqtisodiy inqiroz jarayonlariga keskinlik bilan barham beradi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida investitsiya muhitini yaxshilash va eksportga yo'naltirilgan, ishlab chiqarishni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bugungi kunda mamlakatda amalga oshirilayotgan "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning eng muhim omillaridan biri sifatida investitsiya faoliyatini jadallashtirish va eksport hajmini ko'paytirish belgilab qo'yilgan.

Asosiy qism: O'zbekistonda investitsiya faoliyatining hozirgi holati jadallik bilan o'sib bormoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsiya siyosati liberallashtirildi, xususi sektor faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratildi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 370 trillion so'mdan ortiqni tashkil etgan, bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan qariyb 2,5 baravar oshgan. Davlat tomonidan "Investitsiya dasturi" "Yangi O'zbekiston -2030" strategiyasi doirasida infrotuzilma, energetika, kimyo sanoati, mashinasozlik, ishlab chiqarish va axborot texnologiyalari tarmoqlariga yirik loyihalar tashkil etilmoqda. Eksport salohiyatini oshirish mamlakat uchun chet el valyutasini jalb etish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini bermoqda. 2023-yilda O'zbekistonda eksport hajmi 24,3 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yillardan tubdan farq qilmoqda. Agar ilgari eksportning asosiy qismini xomashyo mahsulotlari (paxta, bug'doy, oltin, gaz) tashkil etgan bo'lsa, hozirgi davrda tayyor sanoat mahsulotlari, avtomobil,

to'qimachilik, ishlab chiqarish, farmasevtika va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti ulushi ortib bormoqda. Bu esa eksport diversifikatsiyasi natijasi sifatida iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ijodiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlil natijalar: Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki investitsiya hajmining 1% ga oshishi Yalpi Ichki Mahsulot o'sishini o'rtacha 0,3-0,5% ga oshiradi. Eksport hajmining o'sishi esa ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytiradi. Texnologik yangilashni rag'batlantiradi va innovatsion faoliyatini kengaytiradi. O'zbekistonda investitsiya faolligining oshishi infratuzilmami yaxshilash, energiya ta'minoti transport logistika tizimini rivojlantirish orqali eksport salohiyatining ortishiga ham zamin yaratmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiyotning so'nggi yillardagi ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, 2017-yil eksport hajmi 12,1 mlrd hisobda bo'lsa 2023-yilda 24,3 mlrd so'mni tashkil etadi. Tahlil natijalari investitsiya oqimlari va eksport hajmining ortishi bilan iqtisodiy o'sish jarayonlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Xulosa: Investitsiya faoliyati va eksport salohiyatining o'sishi O'zbekiston iqtisodiy o'sishining barqaror omillari hisoblanadi. Mamlakatda sarmoyaviy muhitni yanada yaxshilash, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni kengaytirish hamda yuqori texnologiyali sohalarga investitsiyalarni jalb etish iqtisodiy taraqqiyotining kelajakdagi asosiy yo'nalishlari bo'lib qolmoqda. Shuningdek, eksport infratuzilmasini rivojlantirish, bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish va xalqaro logistika tizimlarini takomillashtirish orqali O'zbekistonning global iqtisodiy integratsiyasi yanada chuqurlashadi. Bu O'zbekistonni yanada rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari-<https://stat.uz>.
3. Karimov. A. A "Investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida" Iqtisod va moliya jurnali, 2022-yil, N4